TSUE

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / AVGUST / 8-SON, I-QISM

Google scholar

RePEc RESEARCH PAPERS IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Karimov Norboy G‘aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay’ati:
Salimov Oqil Umrzoqovich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G‘afforovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko‘nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o‘g‘li, O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig‘i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o‘rinbosari
Ochilov Farkhod, O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig‘i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li, TDIU katta o‘qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra’no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:
Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po‘latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
G‘afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o‘qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:
Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

MUNDARIJA

O‘RTA DAROMADLI MAMLAKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA’SIRI 20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi
Jalg‘ashova Nazira Umbet qizi
MINTAQADA SANOAT SALOHIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI 26
Mamedov Ko‘palboy Masharipovich
TA’LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA’MINLASH 30
Umarov Ravshanjon Gafurovich
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI 36
Mamurov Doniyor Eldorovich
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSIYALARDAN FOYDALANISH TAMOYILLARI VA USULLARI 43
Ro‘zimov Doniyor Soporboy o‘g‘li
TOSHKENT METROPOLITENI SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASINING DINAMIKASI VA UNI XALQARO TAJRIBA BILAN QIYOSIY BAHOLASH 49
Mansurov Xamrokul Ilxomovich
ЦИФРОВАЯ САМООРГАНИЗАЦИЯ БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ 56
Мирвосикий Хилола Хабибулла кизи
XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA’MINLASHNING ILMIY-AMALIY TAHLILI 64
Z.Sh. Matniyozova
DEVELOPMENT MECHANISMS OF EMBEDDED FINANCE SERVICES IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN BASED ON OPEN BANKING 69
Khurramova Fotima Bakhodir qizi
IMPROVING THE PRACTICE OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS THROUGH SYNDICATED LOANS PROVIDED BY COMMERCIAL BANKS 76
Xudaynazarov Davrbek Abdullayevich
TASHQI SAVDO DINAMIKASI VA BANK MOLIYAVIY XAVFSIZLIGI: O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA AMALIY TAHLIL 83
Babadjanov Shuxrat Atxamovich
GREEN LENDING PRACTICED AMONG UZBEK COMMERCIAL BANKS: SURVEY- BASED ASSESSMENT OF READINESS AND CONSTRAINTS 90
Avazov Azizbek Ashurali o‘g‘li
“YANGI O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY O‘ZGARISHLARNING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI 96
Amirov Otabek Xudoyberdi o‘g‘li
BARQAROR YASHIL INVESTITSIYALARNING QAYTA TIKLANUVCHI ENERGETIKA RIVOJIGA ROLINI VA HISSASINI TAHLIL QILISH: O‘ZBEKISTON MISOLIDA 101
Zilola Kazakova
HUDUD SANOATIDA KAPITAL VA MEHNAT RESURSLARI SAMARADORLIGINI KOBB–DUGLAS MODELI YORDAMIDA BAHOLASH 113
Turayev Baxrom Ergashevich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

“MAHALLA BANKIRI” INSTITUTI DAVLATBANK HAMKORLIGINING OPERATSION BO‘G‘INI SIFATIDA: SAMARADORLIK MEZONLARI VA OPTIMAL YUKLAMA PARAMETRLARI 120
Nurmuratov Azamat Mamarizo o‘g‘li
SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI YO‘NALISHLARINING AHOLI EHTIYOJLARIGA MOSLIGINI TADQIQ ETISH (URGANCH SHAHRI MISOLIDA) 127
Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi
O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RO‘YXATGA OLISHNING AGRAR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDAGI INSTITUTSIONAL ROLI 132
Shohujayeva Zebo Safoyevna
Xolov Javlonbek Davronovich
УЗБЕКИСТАН КАК АКАДЕМИЧЕСКИЙ ХАБ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ 138
Эргашева Шахло Тургуновна
БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ КАК ИНФОРМАЦИОННАЯ ОСНОВА ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ ПРЕДПРИЯТИЯ 146
Маннапова Раъно Аброровна
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIYAVIY, INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI QO‘LLABQUVVATLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MODELLARI: “3M-PLATFORMA” VA “SMART YOUTH BUSINESS ECOSYSTEM” KONSEPSIYALARI 154
Xojiyev Ma’murjon Muxsinjon o‘g‘li
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI 163
Begimqulova Sevara Nurmamatovna
KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI 169
Yusupov Muxiddin Soatovich
Normaxmatov Fazliddin Nuriddin o‘g‘li
OLIY TA’LIMDA INNOVATSION MENEJMENT IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH 177
Abdullayev Farhod Ozodovich
“YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-AMALIY NATIJALARI 180
Jamshidbek Bobojonov
QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KLASTERLARNING AHAMIYATI 184
Radjabova Mavluda Ergash qizi
STRENGTHENING MAHALLA ENTREPRENEURSHIP THROUGH AN INTEGRATED ECOSYSTEM: FUNCTIONAL LINKAGES, DIGITAL COORDINATION, AND REGIONAL EVIDENCE 189
Zafarjon Odiljonovich Tuxtasinov
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA GENERATIV SUN’IY INTELLEKT INFRATUZILMASINING NAZARIY ASOSLARI 195
Saidov Jaloladdin Allaberganovich
KORXONALARDA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 202
Mamajonova Surayyoxon Maxmudjonovna
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA INNOVATSION RIVOJLANISHNING HUDUDIY XUSUSIYATLARINI BAHOLASH METODIKASI 207
Tojiyev Sa’dulla Muhitdinovich
INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION IMPROVING ECONOMIC INCENTIVE AND RESOURCE-ALLOCATION MECHANISMS AS A FACTOR IN INCREASING THE EFFICIENCY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES: EVIDENCE FROM THE “TECHNOPARK” ENTERPRISE 213
Erkinova Umidakhon Ilhom qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED RECRUITMENT SYSTEMS ON HIRING QUALITY 218
Mutalova Manzura Abdushukur qizi
TOMORQA XO‘JALIGI FAOLIYATI BILAN BOG‘LIQ NOQISHLOQ XO‘JALIGI FAOLIYATINING TA’SIRINI IQTISODIY BAHOLASH 224
U.U.Nurullayev
SHAHAR HUDUDLARIDA EKOLOGIK MONITORING TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI 230
Asqarov Akmal Anvar o‘g‘li
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI 235
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIYAVIY NATIJALAR AUDITI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI 240
Bekchanov Faxriddin Atabekovich
MAHALLIY TURIZMNI RIVOJLANLANTIRISHNING TASHKILIYIQTISODIY MEXANIZMINING ASOSIY FUNKSIYA VA PRINSIPLARI 246
Xayrullayev Elbek Xayrulla o‘g‘li
ЛИЗИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБНОВЛЕНИЯ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА: ФИНАНСОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ И ОГРАНИЧЕНИЯ 250
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH 261
Abdiraxmonov Farxod Arabboyevich
HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINING NAZARIY MODELLARI 267
Jurayev Ismatulla Izzatullayevich
FINANCIAL MODELS IN THE EDUCATION SECTOR: A COMPARATIVE INSTITUTIONAL ANALYSIS OF STATE, PRIVATE, AND MIXED FUNDING SYSTEMS 275
Imomov Inomiddin
SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI 281
Siddiqov Abdusalom Abdumalikovich
NOAN’ANAVIY PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA MAZMUNI 292
Djumonov Dilshod Safarolievich
URBANIZATSIYA SHAROITIDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA’MINLASH MUAMMOLARI 302
Shodmonov Nurjaxon Shokir o‘g‘li
QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK VA O‘RTA BIZNESNI QO‘LLAB QUVVATLASHNING IQTISODIY OMILLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 308
Reimbergenov Xurrambek Xushnudovich
O‘ZBEKISTONDA KO‘CHMAS MULK BOZORI XIZMATLARINING HOZIRGI HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI 314
Sadikova Dildora Abdulla qizi
QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI 321
Baxadir Adilchayev
EKOLOGIK TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI 327
Ergasheva Mohinurxon Odilxon qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

BANK OPERATSIYALARI BO‘YICHA ICHKI AUDIT AMALLARINING MAZMUNIY VA USLUBIY TAHLILI 331
Yuldashev Xurshidbek Mamirjonovich
РАЗРАБОТКА И ПРИМЕНЕНИЕ МОДЕЛИ КОМПЕТЕНЦИЙ ДЛЯ ГОСУДАРСТВЕННЫХ СЛУЖАЩИХ 341
Гофурова Шахрибону Комол қизи
INNOVATION-DRIVEN BUSINESS COMPETITIVENESS THROUGH DIGITAL TRANSFORMATION AND TECHNOLOGICAL CAPABILITY 349
Sarvinoz Asamova
HUDUDIY INVESTITSIYA OQIMLARINI DIFFERENSIAL BAHOLASH ASOSIDA MINTAQAVIY IQTISODIY O‘SISHNI MANZILLI RAG‘BATLANTIRISH 359
Ismoilov Azizbek Rustamjon o‘g‘li
XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH YO‘LLARI BO‘YICHA XORIJ TAJRIBALARI 368
Samiyev Mirkamol Amriddin o‘g‘li
ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОЙ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ: СУЩНОСТЬ, РОЛЬ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ 372
Матчанов Умирзак Сейтжанович
O‘ZBEKISTONDA YASHIL LOGISTIKA TAMOYILLARI ASOSIDA MULTIMODAL TRANSPORT-LOGISTIKA KORIDORLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 379
Islomjon Jamshedovich Jamshedov
YASHIL INVESTITSIYALARNING HUQUQIYINSTITUTSIONAL ASOSLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI 389
Temirova Nozima Shuhrat qizi
ELEKTRON SAVDO PLATFORMALARIDA MOLIYAVIY TAHLILNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA XALQARO TAJRIBA 395
Amanqulova Muxlisa Narsafar qizi
MEHNAT UNUMDORLIGI VA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNI BAHOLASH 403
Rashidov Zuhriddin Sanjar o‘g‘li
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA KLASTERLASHNING ASOSIY TAMOYILLARI VA KONSEPTUAL ASOSLARI 408
Movlonova Dilrabo Nomoz qizi
HUDUD IQTISODIY TIZIMIDA INNOVATSION INFRATUZILMANING BARQAROR RIVOJLANISHGA TA’SIRINI BAHOLASH 412
Sapayev Sindor Qadamboy o‘g‘li
KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMDA KPINING AHAMIYATI VA UNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY YONDOSHUVLARI 418
Botirjon Ergashov
MO‘YNA VA TRIKOTAJ MATERIALLARNI YOPISHTIRISH UCHUN SUVLI POLIMER YOPISHTIRUVCHI KOMPOZITSIYA: TARKIBI, TAYYORLASH USULI VA XOSSALARI 424
Temirova Gulnoz Ibodovna
Shodmonova Mijgona Salimovna
SURXONDARYO VILOYATI TURIZM SALOHIYATINI BAHOLASHNING KOMPLEKS MODELI 429
Mamatov Sardor Ilyosovich
Rashidova Nargiza Orifjon qizi
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA INTERNETMARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK TAHLILI VA EMPIRIK NATIJALAR 435
Pirmatov Oybek Shovkat o‘g‘li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA INSON KAPITALINI SAMARALI BOSHQARISH YO‘LLARI 442
Raxmonov Shuxrat Shavkatovich
PAXTA YETISHTIRISHDA QO‘LLANILADIGAN BARQAROR QISHLOQ XO‘JALIK AMALIYOTLARI: XALQARO ILMIY ADABIYOTLARNING TIZIMLI TAHLILI 447
Rashitova Nilufar Xatambayevna
Mirkasimov Baxrom Ravshanovich
Karimov Komiljon Xamidovich
Abduvaliyeva Nilufar Muxamadnosir qizi
RAQAMLI BANKLAR VA KIBERXAVFSIZLIK: ZAMONAVIY TAHDIDLAR VA HIMOYA USULLARI 465
Abrorov Azizjon Akobirovich
HUDUDLAR RIVOJLANISHI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH UCHUN XAVFSIZLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI 470
Xalilov Nurullo Xamidillayevich
HUDUDIY INVESTITSIYA OQIMLARINI DIFFERENSIAL BAHOLASH ASOSIDA MINTAQAVIY IQTISODIY O‘SISHNI MANZILLI RAG‘BATLANTIRISH 476
Ismoilov Azizbek Rustamjon o‘g‘li
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINING TAHLILI 485
Jumaniyazova Feruza Rajabovna

AKSIYADORLIK JAMIYATLARI INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINING TAHLILI

Jumaniyazova Feruza Rajabovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi,
PhD, dotsent
E-mail: feruza042820@gmail.com
ORCID: 0000-0002-1838-3746

Annotatsiya. O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish amaliyoti 2021–2024-yillar kesimida tahlil qilindi. Tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va Markaziy bankining rasmiy ma’lumotlari, “Toshkent” Respublika fond birjasining yillik birja tahlillari hamda Yagona korporativ axborot portalida (openinfo.uz) e’lon qilingan emitentlar hisobotlari asosida olib borildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, birja savdolari hajmi 2021-yildagi 1,26 trln so‘mdan 2024-yilda 21,95 trln so‘mgacha oshganiga qaramay, kotirovkalash varag‘idagi emitentlar soni 139 tadan 93 taga qisqargan, birlamchi joylashtirishlar esa alohida holatlar bilan cheklangan. Bu holat bozorning ikkilamchi segmentida faollik oshgan bo‘lsa-da, aksiyadorlik jamiyatlari uchun investitsiya kapitalini jalb etishning muhim vositasi bo‘lgan birlamchi bozor imkoniyatlaridan foydalanish darajasi yetarli emasligini ko‘rsatadi. Tadqiqot doirasida amaliyotdagi asosiy to‘siqlar aniqlanib, ularni bartaraf etish hamda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: aksiyadorlik jamiyati, investitsiya loyihasi, moliyalashtirish amaliyoti, fond birjasi, emitent, birlamchi ommaviy joylashtirish, korporativ obligatsiya, bozor kapitallashuvi, erkin muomaladagi aksiyalar, korporativ axborot oshkoraligi.

Abstract. The practice of financing investment projects by joint-stock companies in the Republic of Uzbekistan was analysed for the period 2021–2024. The study was based on official data from the Statistics Agency and the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, annual exchange reviews of the “Toshkent” Republican Stock Exchange, and issuer reports disclosed through the Unified Corporate Information Portal (openinfo.uz). The results indicate that, although the volume of exchange trading increased from UZS 1.26 trillion in 2021 to UZS 21.95 trillion in 2024, the number of issuers on the quotation list declined from 139 to 93, while primary placements remained limited to isolated cases. These findings demonstrate that, despite increased activity in the secondary market segment, the primary market remains insufficiently utilised as an important mechanism for attracting investment capital by joint-stock companies. The study identifies the main practical constraints and develops scientific and practical recommendations aimed at overcoming them and improving mechanisms for financing investment projects.

Keywords: joint-stock company, investment project, financing practice, stock exchange, issuer, initial public offering, corporate bond, market capitalisation, free float, corporate disclosure.

Аннотация. Практика финансирования инвестиционных проектов акционерными обществами Республики Узбекистан проанализирована за период 2021–2024 годов. Исследование проведено на основе официальных данных Агентства статистики и Центрального банка Республики Узбекистан, ежегодных биржевых обзоров Республиканской фондовой биржи «Тошкент», а также отчётности эмитентов, раскрываемой на Едином портале корпоративной информации (openinfo.uz). Результаты анализа показали, что, несмотря на увеличение объёма биржевых торгов с 1,26 трлн сумов в 2021 году до 21,95 трлн сумов в 2024 году, число эмитентов в котировальном листе сократилось со 139 до 93, а первичные размещения оставались единичными. Полученные результаты свидетельствуют о том, что, несмотря на повышение активности во вторичном сегменте рынка, возможности первичного рынка как важного механизма привлечения инвестиционного капитала акционерными обществами используются недостаточно. Определены основные практические ограничения и разработаны научно-практические предложения, направленные на их устранение и совершенствование механизмов финансирования инвестиционных проектов.

Ключевые слова: акционерное общество, инвестиционный проект, практика финансирования, фондовая биржа, эмитент, первичное публичное размещение, корпоративная облигация, рыночная капитализация, свободное обращение акций, раскрытие корпоративной информации.

KIRISH

Aksiyadorlik jamiyatining nazariy afzalligi uning kapital jalb etish qobiliyatida — aksiya va obligatsiyalar emissiyasi orqali cheklanmagan doiradagi investorlardan uzoq muddatli resurslarni jalb etish imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Biroq bu afzallikning amaliyotda ro‘yobga chiqishi kapital bozorining chuqurligi, emitentlarning axborot oshkoraligi va investorlar ishonchiga bog‘liq. Shu sababli aksiyadorlik jamiyatlarining moliyalashtirish amaliyotini empirik tahlil qilish nazariy modellarning amaliyotda ro‘yobga chiqish darajasini baholash imkonini beradi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda kapital bozorini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi: kapital bozorini tartibga solish tizimi qayta tashkil etildi, “Xalq IPO” dasturi ishga tushirildi, tartibga solish qumdoni rejimi joriy etildi, davlat aktivlarini xususiylashtirish dasturlari qabul qilindi. Ushbu chora-tadbirlarning aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish amaliyotiga ta’sirini baholash alohida ilmiy tahlilni talab etadi.

Tadqiqotning maqsadi — 2021–2024-yillar ma’lumotlari asosida O‘zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish amaliyotini baholash, birlamchi va ikkilamchi bozor segmentlari o‘rtasidagi nomutanosiblikni aniqlash hamda uni bartaraf etish yo‘nalishlarini asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonaning moliyalashtirish manbalarini tanlash amaliyoti nazariy jihatdan kapital tuzilmasi konsepsiyalari doirasida izohlanadi. F. Modilyani va M. Miller mukammal bozor sharoitida kapital tuzilmasining betarafligini isbotlagan bo‘lsa [1], S. Mayers va N. Majluf axborot assimetriyasi sharoitida manbalar ma’lum ierarxiya bo‘yicha tanlanishini — avval ichki mablag‘lar, so‘ngra qarz, oxirida aksiya emissiyasi — asoslab berganlar [2]. Ushbu qoida rivojlanayotgan bozorlarda emissiya faolligining nisbatan cheklanganligini izohlovchi asosiy nazariy yondashuvlardan biri hisoblanadi.

M. Jensen va U. Meklinglarning agentlik nazariyasi mulk va nazoratning ajralishi natijasida yuzaga keladigan xarajatlarni ko‘rsatib bergan [3]. R. La Porta va hammualliflarning tadqiqotlarida investorlar huquqlarining huquqiy himoyalanish darajasi kapital bozori chuqurligi va emitentlar soniga ta’sir etuvchi muhim determinant sifatida empirik jihatdan asoslangan [4]. A. Shleyfer va R. Vishni korporativ boshqaruv sifati bilan kapitalga kirish imkoniyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni umumlashtirgan [5].

Birlamchi ommaviy joylashtirish amaliyoti bo‘yicha J. Ritterning tadqiqotlarida IPOning davriyligi, birinchi kun daromadliligi va uzoq muddatli natijadorligi tahlil qilingan [6]. Rivojlanayotgan bozorlarda likvidlik darajasi va erkin muomaladagi aksiyalar ulushining kapital narxiga ta’siri Y. Amixud tomonidan ko‘rsatib berilgan [7]. Xalqaro amaliyot uchun uslubiy asos sifatida OECD korporativ boshqaruv tamoyillari qo‘llaniladi [8].

Mahalliy adabiyotlarda O‘zbekiston fond bozorining holati, davlat ishtirokidagi jamiyatlarni birjaga chiqarish amaliyoti va korporativ obligatsiyalar bozorining rivojlanish istiqbollari o‘rganilgan [9; 10]. Shu bilan birga, aksiyadorlik jamiyatlarining moliyalashtirish amaliyotini birlamchi va ikkilamchi bozor segmentlari kesimida alohida tahlil qilish bo‘yicha tadqiqotlarni yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq bo‘lib, mazkur maqola aynan shu yo‘nalishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tarkibiy-dinamik tahlil, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, zanjirli va bazis indekslar usuli hamda grafik modellashtirish qo‘llanildi. Tahlil davri sifatida 2021–2024-yillar tanlandi: bu davrning tanlanishi kapital bozorini tartibga solish tizimidagi institutsional o‘zgarishlar va “Xalq IPO” dasturining amalga oshirilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning axborot bazasini quyidagilar tashkil etadi: O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligining asosiy kapitalga investitsiyalar bo‘yicha press-relizlari; Markaziy bankning yillik hisobotlaridagi moliyalashtirish manbalari bo‘yicha ma’lumotlar; “Toshkent” Respublika fond birjasining 2021–2024-yillar bo‘yicha birjaviy tahlillari; shuningdek, Yagona korporativ axborot portalida (openinfo.uz) emitentlar tomonidan oshkor etilgan muhim faktlar, qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi to‘g‘risidagi xabarlar va moliyaviy hisobotlar.

Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyalashtirish amaliyoti ikki kesimda baholandi: birlamchi bozor faolligi (yangi aksiya va obligatsiyalar chiqarilishi, birlamchi joylashtirishlar hajmi, emitentlar soni) va ikkilamchi bozor faolligi (birjaviy savdolar hajmi, bitimlar soni, bozor kapitallashuvi). Ushbu ajratish moliyalashtirish amaliyotining haqiqiy holatini aniqlash uchun prinsipial ahamiyatga ega, chunki ikkilamchi bozordagi savdo hajmining o‘sishi emitentga yangi kapital jalb etilishini bevosita anglatmaydi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil davrida O‘zbekiston kapital bozorining asosiy ko‘rsatkichlari turli yo‘nalishlarda o‘zgargan (1-jadval, 1-rasm).

1-jadval.

«Toshkent» Respublika fond birjasining asosiy ko‘rsatkichlari, 2021-2024-yillar[1]

Ko‘rsatkich	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Birjaviy savdolar hajmi, trln so‘m	1,26	4,70	2,71	21,95
Oldingi yilga nisbatan, marta	—	3,73	0,58	8,10
Kotirovkalash varag‘idagi emitentlar soni, ta	139	111	107	93
2021-yilga nisbatan emitentlar sonining o‘zgarishi, ta	—	−28	−32	−46



1-rasm. Birjaviy savdolar hajmi va emitentlar sonining o‘zgarishi, 2021–2024-yillar[2]

1-jadval va 1-rasmdan ko‘rinadiki, tahlil davrida birjaviy savdolar hajmi 17,4 barobar oshgan — bu, birinchi navbatda, 2024-yilda kuzatilgan sezilarli o‘sish hisobiga yuz bergan. Savdo faolligining oshishi chakana investorlarning bozorga kirib kelishi va raqamli brokerlik yechimlarining joriy etilishi bilan bog‘liq: 2024-yilda tuzilgan bitimlar soni 498 381 tani tashkil etib, oldingi yilga nisbatan 21,0 foizga ko‘paygan. Ayni paytda kotirovkalash varag‘idagi emitentlar sonida izchil o‘zgarish kuzatilib, tahlil davrida ularning soni 46 taga yoki uchdan biriga kamaygan.

Mazkur ikki tendensiyaning o‘zaro farqlanishi tahlilning muhim natijalaridan biri hisoblanadi. Savdolar hajmining o‘sishi mavjud aksiyalarning investorlar o‘rtasidagi muomalasini, ya’ni ikkilamchi bozor faolligini aks ettiradi va emitent — aksiyadorlik jamiyatiga bevosita yangi kapital jalb etilishini anglatmaydi. Emitentlar sonining qisqarishi esa birlamchi bozor imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. 2024-yil yakuniga ko‘ra, aksiyalar bozorining kapitallashuvi 242,42 trln so‘mni yoki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 16,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa-da, birlamchi joylashtirishlar alohida holatlar bilan cheklangan: yil davomida “Xalq IPO” dasturi doirasida jami 42,9 mlrd so‘mlik bitta ommaviy joylashtirish — “O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi” AJning ikkilamchi joylashtirishi amalga oshirilgan. Bu summa o‘sha yildagi birjaviy savdolar hajmining 0,2 foiziga teng.

Amaliyotning ikkinchi muhim jihati — aksiyadorlik jamiyatlarining qarz instrumentlaridan foydalanishidir. 2024-yilda birja kotirovkalash varag‘iga 15 ta emitentning 23 ta moliyaviy instrumenti kiritilgan bo‘lib, ulardan 7 tasi korporativ obligatsiyalar chiqarilishi, 16 tasi esa aksiyalar chiqarilishidir. Xalqaro bozorlarda esa yirik aksiyadorlik jamiyatlari 2019–2021-yillarda yevroobligatsiyalarni faol joylashtirgan, 2022-yildan 2023-yilning oktabrigacha bo‘lgan davrda global foiz stavkalarining oshishi ta’sirida joylashtirishlar faolligi pasaygan,

1 Muallif ishlanmasi
2 Muallif ishlanmasi


2023-yilning oktabridan boshlab esa qayta tiklangan. Bu holat mahalliy emitentlarning tashqi bozor konyunkturasidagi o‘zgarishlarga sezgirligini ko‘rsatadi.

Makroiqtisodiy darajada aksiyadorlik jamiyatlarining moliyalashtirish amaliyoti asosiy kapitalga investitsiyalarning manbalar bo‘yicha tarkibida aks etadi (2-jadval, 2-rasm).

2-jadval.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi, 2022–2023-yillar[3]

Moliyalashtirish manbalari	2022-yil, trln so‘m	2023-yil, trln so‘m	O‘zgarish, %
Jami investitsiyalar	269,9	352,1	+22,1
Markazlashgan investitsiyalar	41,5	44,8	−0,7
budjet mablag‘lari	20,9	20,4	−11,4
Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	2,4	1,6	−42,0
hukumat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	15,3	21,2	+30,3
Markazlashmagan investitsiyalar	228,4	307,3	+26,2
korxonalarning o‘z mablag‘lari	84,5	84,9	−2,7
to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar	97,1	166,7	+56,2
shu jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar	37,0	84,3	+96,4



2-rasm. Moliyalashtirish manbalarining qiyosiy tarkibi, 2022–2023-yillar[4]

2-jadval va 2-rasm ma’lumotlari korxonalarning o‘z mablag‘lari hajmi ikki yil davomida deyarli o‘zgarmaganini (84,5 trln so‘mdan 84,9 trln so‘mgacha, taqqoslanadigan narxlarda 2,7 foizga kamayish) ko‘rsatadi. Ayni paytda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 56,2 foizga o‘sgan. Ya’ni investitsiya faolligining o‘sishida tashqi kapitalning hissasi sezilarli bo‘lgan. Bu esa 1-jadvalda qayd etilgan xulosani makrodarajada tasdiqlaydi: aksiyadorlik jamiyatlarida ichki kapital bozori orqali resurslarni jalb qilish bilan bir qatorda, bevosita xorijiy investorlar bilan hamkorlik qilish amaliyoti ham muhim o‘rin tutmoqda.

Amaliyot tahlili natijasida aksiyadorlik jamiyatlarining kapital bozori orqali moliyalashtirish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiluvchi to‘rt guruh omilni ajratish mumkin. Birinchidan, erkin muomaladagi aksiyalar ulushini oshirish muhim ahamiyatga ega: bozor kapitallashuvi yuqori bo‘lgani holda, ochiq savdo qilinadigan aksiyalarning qiymati yalpi ichki mahsulotning bir foizidan kam bo‘lib qolmoqda. Ushbu ko‘rsatkichni oshirish bozor likvidligini yaxshilash va o‘z kapitali qiymatini maqbullashtirish imkonini beradi. Ikkinchidan, korporativ boshqaruv va axborot oshkoraligi amaliyotini yanada takomillashtirish muhim hisoblanadi: Yagona

3 Muallif ishlanmasi
4 Muallif ishlanmasi

korporativ axborot portalida oshkor etiladigan muhim faktlar va moliyaviy hisobotlarning to‘liqligi hamda o‘z vaqtida taqdim etilishi bo‘yicha emitentlar faoliyatini yanada uyg‘unlashtirish imkoniyatlari mavjud. Uchinchidan, institutsional investorlar bazasini kengaytirish, xususan, pensiya va sug‘urta jamg‘armalarining kapital bozoridagi ishtirokini faollashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. To‘rtinchidan, emissiya jarayonining tartib-taomillarini yanada takomillashtirish hamda emitentlar uchun kredit reytingini olish amaliyotini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, tahlil davrida ijobiy siljishlar ham kuzatildi: davlat ishtirokidagi yirik banklar aksiyalarining bir qismi birjada muvaffaqiyatli joylashtirildi, kapital bozorida tartibga solish qumdoni rejimi joriy etildi, korporativ obligatsiyalar chiqarilishi soni ortdi. Mazkur tendensiyalar birlamchi bozorni yanada faollashtirish uchun institutsional zamin yaratmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. 2021–2024-yillarda O‘zbekiston kapital bozorida ikki xil tendensiya kuzatildi: birjaviy savdolar hajmi 1,26 trln so‘mdan 21,95 trln so‘mgacha, ya’ni 17,4 barobar oshgan bo‘lsa, kotirovkalash varag‘idagi emitentlar soni 139 tadan 93 taga qisqargan. Bu holat bozorning ikkilamchi segmentida faollik oshayotganini, birlamchi segmentni esa yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi.

2. Aksiyadorlik jamiyatlari uchun kapital bozorining asosiy funksiyalaridan biri — yangi kapital jalb etish imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. 2024-yilda birlamchi joylashtirishlar hajmi 42,9 mlrd so‘mni, ya’ni o‘sha yilgi birjaviy savdolar hajmining 0,2 foizini tashkil etgan.

3. Makrodarajadagi ma’lumotlar ham mazkur xulosani tasdiqlaydi: korxonalarning o‘z mablag‘lari hajmi 2022–2023-yillarda deyarli o‘zgarmagan (mos ravishda 84,5 va 84,9 trln so‘m), investitsiyalar hajmining o‘sishida esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarning hissasi (+56,2 foiz) sezilarli bo‘lgan.

4. Amaliyot tahlili erkin muomaladagi aksiyalar ulushini oshirish, korporativ boshqaruv va axborot oshkoraligi amaliyotini yanada takomillashtirish, institutsional investorlar bazasini kengaytirish hamda emissiya tartib-taomillarini soddalashtirish kapital bozori orqali moliyalashtirish imkoniyatlarini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlari ekanini ko‘rsatdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, davlat ishtirokidagi yirik aksiyadorlik jamiyatlari uchun erkin muomaladagi aksiyalar ulushining minimal darajasini bosqichma-bosqich belgilash va birlamchi joylashtirishlarni yillik dastur asosida rejalashtirish; ikkinchidan, Yagona korporativ axborot portalida oshkor etiladigan ma’lumotlarning to‘liqligi va o‘z vaqtida taqdim etilishini baholovchi reyting tizimini joriy etish hamda uni listing toifasini belgilashda hisobga olish; uchinchidan, pensiya va sug‘urta jamg‘armalarining kapital bozoridagi ishtirokini kengaytirish maqsadida investitsiya cheklovlarini qayta ko‘rib chiqish; to‘rtinchidan, o‘rta va yirik emitentlar uchun soddalashtirilgan emissiya tartibini hamda milliy kredit reytingi institutini rivojlantirish.

Tadqiqot natijalaridan aksiyadorlik jamiyatlarining kapital bozori orqali moliyalashtirish faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Modigliani F., Miller M. H. The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment // The American Economic Review. – 1958. – Vol. 48, No. 3. – P. 261–297.
2. Myers S. C., Majluf N. S. Corporate Financing and Investment Decisions When Firms Have Information That Investors Do Not Have // Journal of Financial Economics. – 1984. – Vol. 13, No. 2. – P. 187–221.
3. Jensen M. C., Meckling W. H. Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure // Journal of Financial Economics. – 1976. – Vol. 3, No. 4. – P. 305–360.
4. La Porta R., Lopez-de-Silanes F., Shleifer A., Vishny R. W. Legal Determinants of External Finance // The Journal of Finance. – 1997. – Vol. 52, No. 3. – P. 1131–1150.
5. Shleifer A., Vishny R. W. A Survey of Corporate Governance // The Journal of Finance. – 1997. – Vol. 52, No. 2. – P. 737–783.
6. Ritter J. R., Welch I. A Review of IPO Activity, Pricing, and Allocations // The Journal of Finance. – 2002. – Vol. 57, No. 4. – P. 1795–1828.
7. Amihud Y. Illiquidity and Stock Returns: Cross-Section and Time-Series Effects // Journal of Financial Markets. – 2002. – Vol. 5, No. 1. – P. 31–56.
8. OECD. G20/OECD Principles of Corporate Governance. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 88 p.
9. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi O‘RQ-370-son “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz.

10. O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 3-iyundagi O‘RQ-387-son “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz.
11. Yagona korporativ axborot portali. Emitentlarning muhim faktlari va moliyaviy hisobotlari, 2021–2024-yillar. – URL: https://openinfo.uz.
12. “Toshkent” Respublika fond birjasi. Birjaviy tahlil: 2021–2024-yillar yakunlari. – URL: https://uzse.uz.
13. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobot: 2023-yil. – URL: https://cbu.uz.
14. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Asosiy kapitalga investitsiyalar, 2021–2024-yillar. – URL: https://stat.uz.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz